

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TARBIYA BORASIDAGI QARASHLARI

Ibragimov Abdurahim

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy sa'nat va muhandislik grafikasi kafedrası katta o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston
e-mail:abdurahimibragimov@gmail.com*

Annotasiya. *Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining tarbiya borasidagi, turli kasblar, xususan, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik haqidagi qarashlari keltirilgan*

Kalit so'zlar. *Шарқ мутафаккирлари, касб-хунар, таълим-тарбия, Авесто, Фаробий, Беруний.*

Аннотация. *В данной статье изложены взгляды восточных мыслителей на воспитание, различные профессии, особенно земледелие, ремесло и скотоводство.*

Ключевые слов: *восточных мыслители, профессия, образования, воспитания, Авесто, Фараби, Беруний.*

Annotation. *This article describes the views of Eastern thinkers on education, various professions, especially agriculture, craft and cattle breeding.*

Key words. *Eastern thinkers, profession, education, Avesto, Farabi, Beruniy.*

Ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz.

Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zarurat ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari «Avesto», Kaykovusning «Qobusnoma», Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Geodeziya», «Minerologiya», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bular dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridagi xalq eposlari, ertak, maqol va topishmoqlardan boshlangan.

Mana shunday ertaklardan biri «Aql va boylik» ertagidir. Bunda hol to'rt o'g'liga qarata «Kim aqlli va davlatmand bo'lsa, o'sha oila boshlig'i bo'lib qoladi», degan so'zlariga o'g'illaridan biri zumrad ko'zli oltin uzugi, ikkinchisi zarbof choponini, uchinchi esa qimmatbaho kamarini ko'rsatadi.

Kenja o'g'il esa otasining savoliga «Menda zumrad ko'zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqlli boshim bor», - deydi va otasi uni oila boshlig'i qilib, uy- ro'zg'orini meros qoldiradi.

Ko'rinib turibdiki, xalq bu ertak vositasida yoshlarga insonni hayotda baxtli qila oladigan narsa mehnat degan g'oyani ilgari surgan. Faqat ertaklarda emas, xalq maqollarida ham mehnatsevarlik, mehnatda hamkorlik, mehnatning insonni baxtli-saodatli qilishi ifodalangan. Masalan: “Daryo suvini bahor toshirar”, “Inson qadrini mehnat oshirar. oltin otda bilinar”, “Odam mehnatda do'st ortirar, g'iybatdan dushman” kabi maqollar shular jumlasidandir. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida esa shahar va qishloq xalqini ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar olimlar, tabiblar va boshqalar haqida so'zlab, ularning jamiyat hayotidagi o'rniga alohida to'xtalib o'tadi. Turli kasblar, ayniqsa, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikka oid fikrlarini bayon etadi. U dehqon, hunarmand va chorvadorlarni jamiyatning moddiy boyliklarini yaratuvchi sifatida ta'riflaydi.

Dehqonlar mehnatini ulug'lash bilan birga, hunarmandlar haqida ham «juda zarur kishilardir... temirchi, tikuvchi, etikdo'z, suvchi, egarchi, toshchi, o'qchi, kamonchilarning foydasi katta. Ularni sanay berib ko'zim uzayib ketdi. ... Bu dunyoga ular yaxshilik keltiradilar, Ular juda ko'p ajoyib narsalarni ishlaydilar», - deb o'zining xayrixohligini bayon etadi va hukmron doiralarga mehnatkashlar bilan munosabatda bo'lish shartlari xususida o'z tavsiyalarini bayon qiladi.

Dehqonlarga nisbatan:

*(O 'zing bular bilan aralashgin, qo'shilgin,
Tilda yaxshi so 'zla, yuzingni ochiq tut).*

Hunarmandlarga nisbatan:

*(Bular ham senga kerakli kishilardir,
Bularni yaqin tut, foydasi tegadi (ey) bahodir).*

Hotam Toyi bir kuni qo'y-qo'zilar so'ydirib, xalqqa katta ziyofat beradi. So'ng biroz dam olish uchun dalaga chiqadi. Unga yelkasida o'tin ko'tarib kelayotgan bir choh uchraydi. Hotam Toyi unga «Dashtda yurib bexabar qolgandirsan, tashla bu og'ir yukni, Hotam uyiga borib ziyofatda izzat ko'rgil», - deydi. Shunda chol kulib: «Ey, oyog'iga hirs band solgan, g'ayrat vodiysiga qadam urmagan kishi, sen ham bu tikan mehnatini chekkin va Hotamning minnatidan qutulgin», - deb javob qiladi. Hotam Toyi cholning bu so'zlariga tan beradi va halol mehnat bilan kun

kechirishi uning himmatidan baland ekanligini anglaydi.

Alisher Navoiy mehnatning insonni go'zallashtirishi, faqat mehnat tufayligina insonning kamol topishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu maqsadda u qator mehnatsevar badiiy obrazlarni yaratadi. Masalan, «Farhod va Shirin» dostonining asosiy qahramoni Farhod ana shunday qahramonlar jumlasidandir. Farhod Armaniston o'lkasiga qadam qo'yganda, o'z yurtida Qorandan o'rgangan tosh yo'nish hunarini ishlatib, og'ir mehnatdan ezilgan xalqqa yordam beradi. O'z hunari, mehnati tufayli bir tomondan xalqning og'ir mehnatini yengillashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan sevgilisi Shirinning hurmatiga sazovor bo'ladi.

Farhodning mehnatsevar va ijodkorligidan ilhomlangan Alisher Navoiy o'z dostonining ikkinchi nomini «Mehmonnoma» deb ataydi. Mehnatga muhabbat, ijodkorlik dostonning markaziy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida esa turli ijtimoiy guruhlarining hayotidagi o'rnini belgilaydi, fazilat va nuqsonlarini ko'rsatadi. Dehqonlar to'g'risida fikr yuritar ekan, «Dehqonki dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar. ... Olam ma'murlig'i alardin va olam ahli masrurlig'i alardin. Har qayonki, qilsalar harakat, elga ham qut yetkur, ham barakot», - deb dehqonlarni, ya'ni, mehnatkash insonni ulug'laydi. Shu bilan birga shoir bu asarida tekinxo'rlarni, nojo'ya ish tutuvchi kishilarni, ochko'z va ta'magirlarni, mehnat qilmay hayot kechiruvchi shaxslarni tanqid qiladi.

Ma'rifatparvar shoir Furqat ham o'zining ma'rifiy she'rlarida ilm, hunar haqida fikr yuritar ekan, har bir sog'lom fikrlovchi insonni hunar egallashga da'vat etadi, hunarga mehr qo'ygan, uni o'rganishni da'vat etgan kishining jahonda qadri baland bo'lajagini uqtiradi .

Pedagog-shoir H.H.Niyoziy esa maktab yoshlarni ilmli, odobli qilib tarbiyalashi va hunarga o'rgatishi kerak, - deb ta'kidlagan ekan, yoshlar ma'naviy fazilatlarining shakllanishida mehnatning rolini yuqori baholaydi. She'rlarida bolalarni ota-onalarining mehnati qadriga yetishga undaydi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy yoshlikda ilm olishning ahamiyati haqida gapirar ekan, «O'qi», «Kitob», «Qalam» kabi she'rlarida ilmni mehnatsiz egallab bo'lmasligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi. Xulosa qilib aytganda u yoshlarga kelajakda o'z orzulariga yetishish, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan mehnat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi fikrlar o'quvchi-yoshlarning mehnat tarbiyasida muhim vosita sanaladi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sad'iy Sheroziy. Guliston. Toshkent. Yoshlar nashriyoti. 2018 y. 153 b.

2. Muslimov N.A. , Sharipov Sh.S. , Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. Toshkent -2014 . 456 b.
3. Muslimov N.A. Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. Oquv qo'llanma. Toshkent – 2007. 177 b.
4. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent. Xalq merosi. 1993.
5. Zohidova D.A. Hunarmandchilikka kirish. Toshkent. O'MKXTRI. 2001
6. Xolmatov P., Parmonov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish yo'llari. Maktab va hayot. Toshkent. 2010 № 2. B.7-8.
7. Шарипов, Ш. С. (2017). Personality model of modern teacher. *Eastern european Scientific Journal–Germany*, 93-96.
8. Шарипова, Ш. С. (2018). Инновационные технологии в современном учебном процессе. *Молодой ученый*, (9), 185-188.
9. Шарипов, Ш. С. (2000). Педагогические условия формирования изобразительского творчества студентов (на примере факультетов Труда и профессионального образования).
10. ШАРИПОВ, Ш. С., & АБДУРАИМОВ, Ш. С. (2018). МЕЖОТРАСЛЕВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ КАК ФОРМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. In *Высшее и среднее профессиональное образование России в начале 21-го века: состояние, проблемы, перспективы развития* (pp. 58-65).
11. Шарипов, Ш. С. (2012). Теория и практика обеспечения приемственности профессионального творчества учащихся: Дисс.... док. пед. наук.
12. Ismailov T.J, Tagaev X, Kholmatov P.K, Yusupov K.Y, Alkarov K.Kh, Orishev Zh.B Karimov O.O. (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(08), 3669-3677.
13. Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.
14. Orishev, J. (2020). ГЛОБАЛИЗАЦИЯ ДАВРИДА ПЕДАГОГИК МАСЪУЛИЯТИ . *Научно-просветительский журнал "Наставник"*, 1(1).
15. Xolmatov, P., & Оришев, Ж. (2020). ДАРСДАН ТАШҚАРИ МАШҒУЛОТЛАРДА ЎҚУВЧИЛАР КАСБИЙ ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ. *Физико-технологического образование*, 1(1)
16. Xolmatov, P., & Оришев, Ж. (2020). УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ КАСБ-ҲУНАРГА ЙЎНАЛТИРИШНИ

ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *Физико-технологического образования, 1(1)*

17.Оришев, Ж. Б. (2019). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИМКОНИАТЛАРИ. *Интернаука, (43-2), 70-72*

18.Убайдуллаев, С., Оришев, Ж. Б., & Ортиқова, О. Ш. (2019). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМДА" ДАРСЛАРДА ЭКОЛОГИК ТАНАФФУС" ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИГА АСОСЛАНГАН ЭЛЕКТРОН ҚЎЛЛАНМАЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ. *Интернаука, (20-3), 62-63.*

19.Тагаев, Х., Убайдуллаев, С., Алқаров, К. Х., & Оришев, Ж. Б. (2016). ПОВЫШЕНИЕ ПАТЕНТНЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1776-1780).

20.Orishev, J. (2020). Ёшларни касбга йўналтиришда шарқона қарашлар ва педагогик масалалар. *Архив Научных Публикаций JSPI.*

21.Orishev, J. (2020). The use of information and communication technologies in the educational process. *Архив Научных Публикаций JSPI.*

22.Orishev, J. (2020). Criteria for assessing practical work in higher education. *Архив Научных Публикаций JSPI.*

23.Orishev, J. (2020). The main stages of Project Education. *Архив Научных Публикаций JSPI.*

24.Orishev, J. (2020). Роль информационных технологии в подготовке будущих учителей технологического образования. *Архив Научных Публикаций JSPI.*

25.Orishev, J. (2020). Олий таълим муассасаларида инновацион таълим технологияларидан фойдаланишнинг имкониятлари. *Архив Научных Публикаций JSPI.*

26.Orishev, J. (2020). Project Education is a guarantee of educational effectiveness. *Архив Научных Публикаций JSPI.*

27.Orishev, J. (2020). Бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини ўстиришга баъзи мулоҳазалар. *Архив Научных Публикаций JSPI.*

28.Orishev, J. (2020). Ахборот технологиялари: таълим, касбий тайёргарлик ва сифат. *Архив Научных Публикаций JSPI.*